

ARAB TILI O'QITISH METODIKASI

Yusupjanova Aziza Xoshimjanovna

Ijtimoiy-siyosiy fanlar instituti,

Arab filologiyasi yo'nalishi

4-bosqich arab-ingliz guruhi talabasi

fil.f.n G.Rasulova

Abstract: This article explores the essence of Arabic language teaching methodology and its pedagogical, psychological, and linguistic foundations. It analyzes the characteristics, advantages, and limitations of both traditional and modern teaching methods. The study emphasizes the importance of integrating theoretical knowledge with practical tasks and highlights the role of modern technologies in developing core language skills. Based on the author's own learning experience, the article argues that combining both approaches significantly enhances language acquisition. The paper provides practical methodological recommendations useful for language learners and instructors.

Keywords: Language teaching methodology, traditional method, modern method, communicative approach, task-based learning, language skills, technologies, language learning process

Annotasiya:

Ushbu maqolada arab til o'qitish metodikasining mazmuni, uning pedagogik, psixologik va lingvistik asoslari yoritiladi. An'anaviy va zamonaviy metodlarning o'ziga xos jihatlari, ularning afzalliklari hamda cheklovlari tahlil qilinadi. Til ko'nikmalarini shakllantirishda nazariy bilimlar va amaliy mashqlarning o'zaro uyg'unligi, shuningdek, zamonaviy texnologiyalarning o'rni ko'rsatib beriladi. Muallif shaxsiy tajribasi asosida ikki metodning birgalikdagi qo'llanilishi til o'rganish samaradorligini oshirishini ta'kidlaydi. Maqola til o'rganuvchilar va til o'qituvchilari uchun metodik yo'nalishda amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: til o'qitish metodikasi, an'anaviy metod, zamonaviy metod,

kommunikativ yondashuv, task-based learning, til ko‘nikmalari, texnologiyalar, til o‘rganish jarayoni

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, uning sharq mamlakatlari bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalari rivojlana boshladi. Sharq tillarini, xususan arab tilini o‘rganish sohasidagi cheklashlar bartaraf etildi¹²⁸. Shu bois hozirda til o‘rganish zamon talabi va aktual mavzu hisoblanadi. Biroq til o‘rganishda xohish – istakning o‘zi yetarli emas. Buning uchun tolibi ilmnining aniq maqsadi, metodi va albatta ustoz bo‘lishi shart. Shu o‘rinda savol tug‘iladi maqsad tushunarli, metod nima?

Metod bu ongli insonni bir maqsad sari olgan yo‘lini aniq va ravon qilib beradigan usuldir. Qaysi sohada bo‘lishidan qat’iy nazar ilmni egallashda to‘g‘ri metodlardan foydalanish undagi samaradorlikni oshiradi, agar uni o‘z uslubi bilan o‘rganib-o‘rgatilsa natijalar doim yuqori bo‘ladi. Tibbiyot, muhandislik, yoki istalgan boshqa sohalar kabi til o‘qitishning ham o‘z metodi bor.

Til o‘qitish metodikasi — pedagogika fanining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Metodikani o‘rganish psixologiya va pedagogika fanlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, tilshunoslik va madaniyatshunoslik fanlari bilan ham uzviy aloqaga ega. Ushbu fanlar tilni chuqur o‘rganish, muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, shuningdek, madaniy merosni anglash jarayonida katta ahamiyat kasb etadi, shuningdek ta’lim olish bilan bir qatorda tarbiya ham singadi. Chet til o‘qitishda tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishning ikkinchi metodik usuli ushbu til materialida tarbiyaviy jihatdan foydalanish hisoblanadi¹²⁹

Tillarni o‘qitish mazmuni bir necha asosiy unsurlarga bo‘linadi:

1. Tilning nazariy asoslari
2. Amaliy ko‘nikmalar
3. Madaniy-ma’rifiy bilimlar
4. Ilmiy-amaliy yo‘nalishlar

¹²⁸ Arab tili grammatikasi Ne‘matulla Ibrohimov Muhammad Yusupov Namangan 2009

¹²⁹ Jamol Jalolov "Chet til o‘qitish metodikasi" Toshkent 2012

Til o'qitish metodikasini o'rganish talabalarga til bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni egallash imkonini beradi. Til o'rganish jarayonida tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish ko'nikmalari izchil shakllanadi. Hozirgi davrda zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanish til o'rganishni yanada samarali qiladi. Texnologiyalar o'quvchi yoki talabaning mustaqil ishlashiga sharoit yaratib, til o'rganish jarayonini osonlashtiradi. Til o'qitishni nimadan boshlash kerak?

Til o'qitishni, avvalo, tovush va harflarni o'rgatishdan boshlash muhim. Chunki har bir tilning o'ziga xos yozuv tizimi va tovush qurilishi mavjud. Ma'lumki, harf — bu tovushning yozuvdagi ifodasidir. O'quvchi so'zlovchi sifatida ham, yozuvchi sifatida ham tilni to'g'ri ifodalay olishi uning ushbu tilni egallay boshlaganidan dalolat beradi.

Og'zaki va yozma nutqni mustahkamlash uchun turli metodik yondashuvlardan foydalanish lozim. Til o'qitishda ikki xil metod mavjud:

1. An'anaviy metod
2. Zamonaviy metod

An'anaviy metod — grammatik bilimlarni chuqur o'rganish, so'z boyligini lug'at so'zlarini yodlash orqali oshirish, matnlarni tarjima qilish (masalan, arab–o'zbek, o'zbek–arab) kabi uslublarga tayanadi. So'z ma'nosini aniqlash, muayyan so'zning imlosini bilib olish, so'zga ma'nodosh yoki zid ma'noli so'zlar topish vaqtida lug'atlar qo'l keladi¹³⁰

Zamonaviy metod esa kommunikativ metod, task-based learning (TBL) kabi yondashuvlarni o'z ichiga oladi. TBLda til o'rganuvchi tilni real hayotga oid amaliy vazifalarni bajarish orqali mustaqil o'rganadi.

Har ikkala metodning o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud.

An'anaviy metod o'rganuvchini maqsadga nisbatan bir oz sekinroq olib boradi, biroq bilimlar puxta, tizimli va mustahkam shakllanadi.

Zamonaviy metodlar esa til o'rganishni ancha yengillashtiradi, o'rganuvchini

¹³⁰ Djumali Shabanov "Chet tilini o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalari" Toshkent 2009

faol va tez muloqotga kirishadigan qiladi. Biroq fundamental va barqaror bilimga ega bo'lish uchun o'quvchi baribir grammatikani yaxshi bilishi, egallagan lug'at boyligini ongli va to'g'ri qo'llay olishi zarur.

Agar talaba har ikki metodni uyg'unlashtirgan holda bilim oladigan bo'lsa, bu nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Bunday izchil bilim va malakaga ega bo'lishda esa o'qituvchining roli juda katta. O'qituvchi til o'rganuvchini to'g'ri yo'naltirib, bir vaqtning o'zida an'anaviy va zamonaviy metodlardan samarali foydalangan holda dars olib borishi lozim.

Til o'rgatish jarayoning tub negizida inson ongi va unda kechadigan jarayonlar turadi. Aynan mana shu sababdan psixologiya metodikaning asosiy tayanch fanlaridan biridir. O'qituvchi til o'rganish jarayonida o'z o'quvchilarining psixologik qobiliyatlarini o'rganishi, til materiallarini tushuntirishda ularni hisobga olishi kerak¹³¹. O'quvchining idroki va e'tibori nimaga qaratilganini aniqlashtirib olishimiz kerak. Chunki, til o'rganishda tovushlarni farqlash, ma'noni anglash, gap tuzilishini qurishda idrok muhim hisoblanadi. Idrok va e'tibor, diqqat va qiziqish yuqori bo'lmasa o'rganish samaradorligi yuqori bo'ladi. Til o'rganishning asosiy qismi yodlashga tayanadi. Xotiraning ma'lumotni o'zida saqlab qolishining yaxshi va mustahkam bo'lishi o'qitishni yengillashtiradi. So'z boyligi, qoidalar, talaffuz, har xil ijtimoiy vaziyatlarda qanday gapirish bu – qisqa muddatli va uzoq muddatli xotira mexanizmlarini bilish metodika bilan bevosita bog'lanadi. Yana psixologiyada ichki va tashqi motivatsiya tushunchalari bor. O'rganuvchi til o'rganish jarayonida “nega o'rganyapman?” degan savol juda muhim. Bundan tashqari yosh psixologiyasi ham bor. Bola, o'smir va kattalarda tilni qabul qilish jarayoni turlicha bo'ladi.

Ayniqsa, arab tilini jahon miqyosida turli yosh kategoriyalarida o'rganiladi. Buning ahamiyati shundaki arab tili ilmiy, adabiy va madaniy merosning boyligi: u Qur'oni-Karim va Hadisi-sharif tili bo'lib, bu Islom merosini chuqur tushunish imkoniyatini beradi. Bundan tashqar xalqaro ahamiyatga ham ega: siyosiy, iqtisodiy

¹³¹ M. Murtazoxodjayeva "Asosiy sharq tillarini o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalar" Toshkent 2013

va madaniy aloqalarda muhim rol o'ynaydi. Tilida ko'plab lahjalar borligi, xilma-xilligi kishini o'ziga tortadi. Arab tili insonni keng fikrlashga undaydi.

Bu tilni sohibi bo'lishda albatta, an'anaviy va zamonaviy metodlardan foydalaniladi. Talabalarga fonetik, lingvistik va grammarik ko'nikmalarni shakllantirish usullari o'rgatiladi. Qiyosiy tahlillar olib boriladi, didaktik materiallar tayyorlanadi va ulardan samarali foydalanishni o'rgatiladi. Shu tariqa talabalarda madaniy muloqot kompetensiyasi rivojlanib boradi. Shuningdek, o'rganuvchini mustaqil o'qish, izlanish va tadqiqot olib borishga ham ko'niktirish lozim.

Arab tilini o'rganishda og'zaki nutq bilan birgalikda yozma nutq ham muhim rol o'ynaydi. Yozishga o'rgatish chet tili alfavitidagi tovushlarning grafik timsollarini o'zlashtirishni, harflarni tovushlarga, so'zlarga gaplarga aylantirib, ularni imlo jihatdan to'g'ri yozishni va ular yordamida fikrni yozma bayon qilishni ko'zda tutadi¹³².

Arab tilini boshqa dunyo tillaridan ajralib turadigan bir qator xislatlari bor. Masalan so'zlar o'ngdan chapga qarab yoziladi va bu ison ko'z salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Harflarni mahrajidan to'g'ri talaffuz qilish esa nafas yo'llaridagi g'uborlar bilan kurashadi. Bu til yozuvida katta-kichik, bosma-yozma degan tushuncha yo'q. Ma'lumki, arab yozuvi o'ziga xos xususiyatga ega. Ya'ni arab yozuvida qisqa unlilar yozma ifoda etilmaydi¹³³.

Men o'zim ham hozirda arab va ingliz tillarini o'rganishga bel bog'laganman. Bu jarayonda har ikki — an'anaviy va zamonaviy — metodlardan foydalanishga intilyapman. Ushbu metodlarning uyg'unligi til o'rganishning asosiy ko'nikmalari: eshitish, o'qish, yozish va gapirishni shakllantirishda katta yordam bermoqda. Ustozlarimning ko'magi, shuningdek zamonaviy texnologiyalarning imkoniyatlari mening bilim, ko'nikma va malakalarimni yanada boyitmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

¹³² Abdumurod Ko'chiboyev "Chet tillar o'qitishning amaliy metodikasi" Samarqand 2012

¹³³ N.M.Orifho'jayev "Mutahassislik fanlarini o'qitish metodikasi" Toshkent 2009

1. Arab tili grammatikasi Ne'matulla Ibrohimov Muhammad Yusupov Namangan 2009
2. Jamol Jalolov "Chet til o'qitish metodikasi" Toshkent 2012
3. Raxmonov, A. (2025). MUTARRIZIYNING "RISALATUN FIN-NAHV" ASARIDA TIL O'QITISH USULLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(20), 126-130.
4. Рахмонов, А. К. (2025). АБУЛФАТХ БУРХОНИДДИН НОСИР МУТАРРИЗИЙ-ЎРТА АСР ШАРҚ ИЛМИЙ МЕРОСИНИНГ ЁРҚИН НАМОЁНДАСИ. *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 549-560.
5. MUTARRIZIYNING "RISOLATUN FIN NAHV" ASARI MO'JAZ GRAMMATIK MANBA. (2025). *Barqaror Taraqqiyot Va Rivojlanish Tamoyillari*, 3(4), 85-88. <https://uzresearchers.com/index.php/BTRT/article/view/2528>
6. NOSIR AL-MUTARRIZIY MEROSIDA TARJIMA NAZARIYASI VA DIDAKTIKASI: "RISALATUN FIN-NAHV" ASARI VA ZAMONAVIY TARJIMA TA'LIMI INTEGRATSIYASI. (2025). *SCIENCE TIME*, 3(5), 150-155. <https://doi.org/10.66345/stj.v3i5.4640>
7. Djumali Shabanov "Chet tilini o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalari" Toshkent 2009
8. M. Murtazoxodjayeva "Asosiy sharq tillarini o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalar" Toshkent 2013
9. Jo'Rayeva, M. (2025). XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR:(ARAB TILI MISOLIDA). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(20), 222-224.
10. TOSHMATOVA, S. (2025). Usage of Cooperative Exercises in Developing Writing Skills of EFL Students. *SHOKH LIBRARY*.
11. Mahmudova, S. (2024). SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA IJODKOR OBRAZI TALQINI. «*ACTA NUUZ*», 1(1.1. 1), 288-292.

12. Хамракулова, Ш. А. (2025, November). ФОРМЫ ОРГАНИЗАЦИИ ПРОЕКТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РАМКАХ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ. In *Conferences* (Vol. 1, No. 9, pp. 507-510).
13. Rustamova, M. B. Q., & Raxmonov, A. K. (2026). *Al-Mutarriziyning "Risalatun fi an-nahv" asarida ko'makchi so'zlarning semantik va sintaktik xususiyatlari*. *Science Time Journal*, 4(5/1), 487–492.
14. Komilovich, R. A. (2026). NOSIR AL-MUTARRIZIYNING "RISALATUN FIN-NAHV" ASARIDA SO 'Z TURKUMLARI TASNIFI VA ULARNING LINGVISTIK MEZONLARI. *Innovation and development*, 4(5), 339-343.
15. Рахмонов, А. К. (2026). ЛЕКСИКОЛОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ В НАУЧНОМ НАСЛЕДИИ АЛ-МУТАРРИЗИЯ. «*Qazaqtany*», (29), 162-171.
16. Raxmonov, A. K. (2025). *Mutarriziyning "Risalatun fin nahv" asari mo'jaz grammatik manba*. *Barqaror Taraqqiyot va Rivojlanish Tamoyillari*, 3(4), 85–88.
17. Raxmonov, A. K. (2025). *Nosir al-Mutarriziyning "Risalatun fin-nahw" asarida grammatik kategoriya talqini va uning o'zbek tilshunosligidagi muqobillari*. In *Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida* (pp. 136–139). Alfraganus University.
18. Jurayeva, N., Küçük, S., Soyer, A., & n Kaba, H. (2025). *Xorazm Shevalari O'g'uz Lahjasi Leksikasida Murakkab Tarkibli Dialektal Birliklarning O'rni*.
19. Jurayeva, N. (2025). *HOSIYAT BOBOMURODOVA SHE'RIYATINING POETIK XUSUSIYATLARI*. *Indexing*, 1(1), 91-95.
20. Gulmuradovna, J. N. (2025). *XORIJIY TILLARNI O'RGANISHDA TIL KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH*. *Indexing*, 1(1), 86-90.
21. Qo'chqarovich, K. U. (2026). *REY BREDBERINING "ERTAGA QIYOMAT" HIKOYASIDA APOKALIPSIS VA BADIY PSIXOLOGIZM.* " *Alfraganus* " *xalqaro Ilmiy Jurnali*, 3(4), 11-21.